



**BUXORO DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ISSN – 2181-4201**

**TA'LIM  
TRANSFORMATSIYASI**

**ILMIY – METODIK JURNAL**

**Nº 4**

**BUXORO – 2023  
«DURDONA» NASHRIYOTI**

## ILMIY – METODIK JURNAL TAHRIR HAY'ATI TARKIBI

**Bosh muharrir:**

**Daminov Mirzohid Islomovich**

Buxoro davlat pedagogika instituti direktori, p.f.n., dotsent.

**Tahrir hay'ati raisi:**

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich**

pedagogika fanlari doktori, professor.

Ma'murov B.B.	— pedagogika fanlari doktori, professor
Muqimov K.M.	— O'zRFA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor <del>akademik</del>
Xamidov O.X.	— iqtisod fanlari doktori (DSc), professor
Murodov Sh.N.	— fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ikramov A.A.	— pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raximov Sh.A.	— fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Muxtorov E.M.	— psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Niyozov A.K.	— texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Sharipov A.Z.	— falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Qahhorov O.S.	— iqtisod fanlari doktori (DSc), professor
Barotov Sh.R.	— psixologiya fanlari doktori, professor
Olimov Sh.Sh.	— pedagogika fanlari doktori, professor
Rasulov T.H.	— fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
O'rareva D.S.	— filologiya fanlari doktori, professor
Amonov M.R.	— texnika fanlari doktori, professor
Bo'riyev S.B.	— biologiya fanlari doktori, professor
Abdullayev M.J.	— pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jo'rayev A.R.	— pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Saidova M.J.	— pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Nazarov M.R.	— fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Izbullayeva G.V.	— pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Tadjixodjayev Z.A.	— texnika fanlari doktori, professor
Tosheva D.A.	— filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
Byulent Bayram	— filologiya fanlari doktori, professor (Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro Turk-Qozoq universitet)
Timur Kojaog'lu	— filologiya fanlari doktori, professor (AQSH Michigan davlat universiteti)
Irina Pokrovskaya	— filologiya fanlari doktori, professor (Taras Shevchenko nomidagi Kiiev milliy universiteti)
Murat Elmali	— filologiya fanlari doktori, professor (Istanbul universiteti)
Mehmet Y.Y.	— filologiya fanlari doktori, professor (Istanbul universiteti)
Starikov Marcelo	— pedagogika fanlari doktori, professor (New York)

**Muassis:** BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**Tahririyat manzili:** Buxoro shahar Piridastgir ko'chasi 2-uy.

**Telefon:** (+998 65) 226-10-97

**Faks:** (+998 65) 226-66-75

## XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Termiz atrofidagi

yerlarini o'zlashtirish tarixidan

*Orziev Mahmud Zaynievich*

*Buxoro davlat universiteti*

*"Jahon tarixi" kafedrasi dotsenti t.f.f.d. (PhD)*

*Jumaev Alibek Botirovich*

*Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada Buxoro amirligining Rossiya imperiyasiga yarim qaram davlatga aylangandan keyin, uning hududiga Rossiya imperiyasi fuqarolarining kirib kelishi jarayonlari, Buxoro amirligi hududida o'z mulklariga ega bo'lishlari va yashash imkoniyatlarini qo'lga kiritishlari, Amudaryo bo'yidagi Patta-Hisor kechuvi uning Afg'oniston bilan bo'ladigan savdo-iqtisodiy va siyosiy munosabatlardagi ahamiyati, Termiz shahrini bunyod etilishi va uning atroflarini o'zlashtirishning boshlanishi bilan bog'liq ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, Buxoro xonligining Afg'oniston bilan chegara ushbu hududiga qiziqish Rossiya imperiyasining paxta xom-ashyosiga xorijiy davlatlar (AQSh, Misr va boshq.)ga qaramligini kamaytirish maqsadida bo'lgan. Termiz va uning atroflarida bu vaqtda Buxoro amirligi aholisi soni bir qadar kamroq bo'lib, ushbu hududlarni ariq-kanallar qazish evaziga o'zlashtirish va paxta yetishtirish maqsad qilingan. Termiz gornizoni qurilishi boshlanishi bilan Buxoro amiridan uning atrofidagi yerlarga konsessiya huquqini qo'lga kiritish harakati ham boshlangan. Buxoro amiri hadya qilgan 10 ming desyatina atrofidagi yer maydonlarni sug'orish ishlarini jonlantirish maqsadida zamonaviy injenerlik loyihalari asosida magistral kanal

chiqarish uchun injenerlarning yollanishi, qazilgan kanal va uning ekologik, sanitariya bilan bog'liq omillari masalalari tarixiy manba va adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Irrigatsiya, shartnoma, hadya, kelishuv, ishbilarmon, sug'orish, xom-ashyo, sariq tuproq, svaya qoziqlar, daryo o'zani, loyiha, xarajat.

**Аннотация:** В статье после того, как Бухарский эмират стал полуавтономным государством Российской империи, рассматриваются процессы въезда на его территорию граждан Российской империи, приобретение ими имущества и возможностей для проживания на территории эмирата Бухара, значение переправы Патта-Хисар по реке Амударья в торгово-экономических и политических отношениях с Афганистаном, приводятся сведения, связанные с созданием города Термез и началом освоения его окрестностей. Также интерес Бухарского ханства к этому приграничному району с Афганистаном был направлен на снижение зависимости Российской империи от зарубежных стран (США, Египта и др.) по хлопковому сырью. В настоящее время население Бухарского эмирата в Термезе и его окрестностях несколько меньше, и оно нацелено на освоение этих территорий и выращивание хлопка в обмен на рытье рвов и каналов. С началом строительства Термезского гарнизона началось и движение за получение концессионных прав на окрестные земли от бухарского эмира. В целях оживления ирригационных работ на около 10 000 десятин земли, подаренной бухарским эмиром, найма инженеров для строительства магистрального канала на основе современных инженерных проектов, на основе современных инженерных проектов

были проанализированы прорытый канал и его экологические и санитарные факторы. исторические источники и сведения в литературе.

**Ключевые слова:** Орошение, контракт, дар, соглашение, бизнесмен, орошение, сырье, желтая почва, свайные сваи, русло реки, проект, стоимость.

**Abstract:** In the article, after the Emirate of Bukhara became a semi-dependent state of the Russian Empire, the processes of the entry of citizens of the Russian Empire into its territory, their acquisition of property and opportunities for living in the territory of the Emirate of Bukhara, the importance of the Patta-Hisar crossing along the Amudarya River in trade, economic and political relations with Afghanistan. , the information related to the creation of the city of Termiz and the beginning of development of its surroundings is given. Also, the Bukhara Khanate's interest in this border area with Afghanistan was aimed at reducing the dependence of the Russian Empire on foreign countries (USA, Egypt, etc.) for cotton raw materials. At this time, the population of Bukhara Emirate is somewhat less in Termiz and its surroundings, and it is aimed to develop these areas and grow cotton in return for digging ditches and canals. With the beginning of the construction of the Termiz garrison, the movement to obtain concession rights to the surrounding lands from the emir of Bukhara also began. In order to revitalize the irrigation works of around 10,000 desiatinas of land donated by the Emir of Bukhara, the hiring of engineers for the construction of a main canal based on modern engineering projects, the dug canal and its

environmental and sanitary factors were analyzed based on historical sources and information in the literature.

**Key words:** Irrigation, contract, gift, agreement, businessman, irrigation, raw material, yellow soil, pile piles, river bed, project, cost.

**Kirish.** Buxoro amirligining 1868 va 1873 yillarda Rossiya imperiyasi bilan tuzgan shartnomalari uning yarim qaram davlat ekanligini asoslovchi hujjutlar bo'lgan. Rossiya imperiyasining paxta xomashyosiga bo'lgan qaramlikdan qutilish borasidagi amaliy harakatlarida Buxoro amirligining hududlaridan ham foydalanish ko'zda tutilgan bo'lib, ana shunday hududlardan biri sifatida Termish va uning atrofidagi yerlarda yangi irrigatsiya inshootlari bunyod etib o'zlashtirish masalasi kun tartibiga chiqqan.

**Adabiyotlar sharhi.** Ushbu mavzuni mazmunan tadqiq etishda bir qator manba va adabiyotlardan foydalandik. Jumladan 1867-1917 yillarda

mavjud bo'lib turgan Turkiston general-gubernatorligi tarixini yorituvchi "Turkestanskiy sbornik" ("Turkiston to'plami") materiallari ayniqsa katta manbaviy ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan to'plamning 404, 445, 465, 478, 497 tomlarida D.N. Logofet, A.M. Lunding, S.Mazov, V.L. Masalskiy, M.Nestroe kabilarning maqolalari mavzuni yoritishdagi asosiy manbalar bo'lib hisoblanadi. Termiz va uning atroflaridagi yerlarni sug'orish ishlarini masalasini dastlabki shaxslardan biri D.N. Logofet bo'lib, uning "Buxarskoe xanstvo pod russkim protektoratom: T. 1-2 / D. N. Logofet. - SPb. T. 2. - 1911. - 357 s.", "V gorax i na ravninax Buxagъ: (ocherki Sredney Azii) / D.N. Logofet. - S.-Peterburg:

izdanie V.Berezovskogo, 1913. - VII, 619 s.: il." kabi asarlari mavzuni yoritishdagi asosiy tarixiy adabiyotlardan bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, V.V. Bartold, B.Iskandarovlarning tadqiqodlarini ham alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

#### **Natijalar va munozaralar.**

Surxondaryo viloyati nafaqat bugun, balki Buxoro amirligining Rossiya imperiyasiga qaramlik davrida ham muhim siyosiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki, Amudaryo orqali Afg'oniston bilan chegara ekanlikning o'zi siyosiy ahamiyatni ko'rsatda, o'lkaning tabiatini yilda ikki-uch marotaba hosil olish imkonini berishi, Rossiya sanoati uchun paxta yetishtirishda keng imkoniyatlarga egaligi uning iqtisodiy jihatdan ahamiyatini ko'rsatib beragan.

Rossiya imperiyasi

ishbilarmonlari, sanoat korchalonlari uchun Termiz va uning atroflarida o'z savdo omborxonalariga ega bo'lishlari, yashashlari imkonini 1872 yilgi Rossiya-Buxoro shartnomasi belgilab bergen. Shuningdek, 1895 yilda qo'shimcha ravishda imzolangan kelishuvga ko'ra, Buxoro amirligining Karki va Termiz hududlarida ruslarning mulkka ega bo'lishlari va yashash huquqlari berilgilib bergen[4. 24]. Termiz va Surxondaryo yerlarini o'zlashtirish shu tariqa boshlangan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Surxon vohasi Rossiya kirib kelguncha Buxoro amirligi janubidagi aholi zinch joylashgan hudud bo'lgan[8. 5]. Ammo, siyosiy-harbiy va iqtisodiy jihatdan Buxoro amirligining muhim markazlaridan biri ekanligi sababli Rossiya ma'murlari

diqqatini jalb qilgan. Rossiya imperiyasi ma'murlari tomonidan tashkil qilingan ekspiditsiya Termiz yaqinidagi yerlarni o'rganib chiqib, mahalliy aholi bilan imkon qadar ziddiyatga bormaslikka harakat qilganlar. Shu sababli Amudaryo, Surxondaryo, Vaxsh, Panj va Qizilsuv daryolari havzasidagi bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirishga intilganlar. Har holda dastlabki o'zlashtirish davrida shunga intilganlar. Mahalliy aholi egallamagan, nizoli bo'lмаган hududlarda yangi paxtachilik hududlarini yaratish tavsiya etilgan bo'lib, ularni maydoni ham hisoblab chiqilgan. Unga ko'ra, Surxondaryo havzasida daryoni Amudaryoga quyilish quyilish joyi Termizdan uch vyorst yuqoriqog'ida Surxonning chap qirg'og'idagi 16 vyorst kenglikdagi va 50 vyorst uzunlikdagi umumiy 800 kvadrat vyorst maydon mavjudligi, to'rt

arshin qalinlikdagi sariq tuproqli ekanligi, shuningdek, Ko'kaydi qishlog'i yonida, Surxondaryoning o'ng qirg'og'ida uzunligi 40 vyorst, kengligi 10 vyorst, jami 400 vyorst kvadrat sariq tuproqli maydon taklif etilib, bir vaqtlar Qisilsuv daryosidan chiqarilgan 3-4 arshin kenglikdagi ariqlarning izlari saqlanib qolinganligi ham ta'kidlab o'tilgan[5. 111].

Termiz va uning atroflarini tadqiq qilgan D.N. Logofet uning Karkidan 200 vyorst uzoqlikda ekanligi, atrofida sariq tuproqli ulkan maydonlar va qadimgi irrigatsiya tizimlari izlari saqlanib qolingga, shu sabali bu yerda katta mehnat qilmay, eski ariqlarni tiklash imkonи mavjudligi, yerlarni o'zlashtirish va Afg'oniston bilan savdo qilishda rus manzilgohlari zarurligi, ularni himoya qilishi ko'zda tutilgan askarlar kazarmasini 1897 yilgi ekspiditsiya aniqlab bergani, Termiz atrofida

rus manzilgohini qurish g'oyasini Amudaryo brigadasi rahbari polkovnik Kostevich tomonidan ilk bora o'rtaga tashlaganini keltirib o'tgan[6. 172]. Shuningdek, D.N. Logofet Termiz atrofini ruslar tomonidan o'zlashtirish 1889 yilda boshlangani, shu yili Rossiya ma'murlariga amir Abdulahadxon 10 ming desyatina yerni hadya qilgani, keyingi yillarda Surxondaryoning irmog'i bo'lgan Qizilsuv daryosidan magistral kanal qazish sodir bo'lib, 300 ming rubldan ortiqroq xarajat talab qilgan kanal birinchi Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi birinchi irrigatsiya loyihasi bo'lganligini yozib qoldirgan[3. 88]. Bu kanal xususida quyida batafsil to'xtalib o'tamiz.

1898 yilda qurila boshlangan Termiz gornizoni Afg'oniston bilan savdoda muhim ahamiyat kasb etgan Patta hisor kechuvi

yonida tiklana boshlangan edi. Bu hududlar yuqorida ta'kidlanganidek, Salovat arig'idan sug'orilgan. Ammo, damba omonat bo'lib, daryo o'zanidan yelka balandligida shox-shabba va xashaklardan qurilganligi sababli omonat bo'lib, yangi magistral kanal qurish zarurligini kun tartibiga chiqargan. Termiz gornizoni shakllangandan keyin esa, katta miqdorda suv zarur bo'lgan. Rossiya ma'murlari tomonidan Qisilsuv daryosidan chiqarilgan eski ariqlarni tiklash g'oyasi rad etilgan. Shuningdek, Sherobod begi tomonidan 60-70 ming rublga kanal qazib berishi taklifi javobsiz qoldirilgan. Harbiylar kanal qazishga 160 ming rubl undirganlar. Ikki yil davom etgan ariq qazish ishlari natijasiz tugagan Termizga suv kelmagan[4. 159-160]. Termiz atroflariga suv

kelishi yana bir necha yil ortga surilgan.

Termiz atroflarini amaliy jihatdan o'zlashtirishning boshlanish davrida Rossiya ma'murlari amirdan 40 desyatina yer sotib olganlar. Bu yerda askarlar uchun kazarmalar, ofitserlar uchun uy, cherkov, lazaret qurish ishlari amalgalashirilgan. Bu vaqtida Termiz va uning atroflari irrigatsiya nuqtanazaridan qoniqarli hisoblanmagan mahalliy aholi tomonidan qurilgan Solihobod kanalidan suv ichgan. Buxoro amiridan keng maydon sotib olingach, sug'orish masalasi kun tartibiga chiqqan va 1898 yilda Termizga injener Gelman ushbu muammoni yechish maqsadida yuborilgan. Uning tomonidan ishlab chiqilgan yangi ariq loyihasi 4750 desyatina yerni sug'orishga mo'ljallangan bo'lib, umumiy xarajatlar 130 ming rublni tashkil

qilgan. 1899 yilda Armiya qo'mondoni Duxovskiy boshchiligidagi bo'lib o'tgan yig'ilishda Rossiya imperiyasi Solihobod kanalini bosh qismini ishonchli va mustahkam qurish, Patta hisor (Termiz) va Solihobod kanallarini kengaytirishni o'z qo'liga olishi kerak degan qaror qabul qilgan. Shundan so'ng, Buxoro amiri Rossiya hukumatiga 9000 desyatina yerni tekinga berib yuborgan. Bu yerning bir tomoni Amudaryoga tutashgan bo'lsa ikkinchi tomoni Eski Termiz bo'ylab, Surxondaryoga tutashgan. Bu kabi katta yerlarni sug'orish uchun yangi magistral kanal loyihasi zarur bo'lib, Rus hukumati injener B.N. Kastelskiyga topshiriq berib, injener Gelmanni loyihasini qayta ko'rib chiqish, Termiz atrofidagi yerlarini sug'orish imkoniyatlarini o'rGANISHNI vazifasini yuklagan. 1900 yilda B.N. Kastelskiy Termiz atroflarini

geologik jihatdan o'rganib, Surxondaryoni oqim tezligi (o'zanini burg'ulash orqali yer qatlamini tekshirgan), hajmi va uni o'zgarib turishi, Solihobod arig'iga vodomer (suvni miqdori, uning harakat tezligini o'lchaydigan asbob) o'rnatib tekshirgan. Shuningdek, Termiz shahridan 120 vyorst uzoqlikda Surxondaryoni ikki qirg'og'idan ham chiqarilgan qadimiy ariq qoldiqlarini ham geologik razvedka qilgan. Bir vaqt ni o'zida Termizdag'i yerkarni sug'orish maqsadida kanal loyihasini ham tayyorlagan. Loyihaga ko'ra, Kanal Surxondaryodan bosh olishi kerak bo'lib, daryo suvining loyqaligi ham hisobga olinib, cho'kindilarni kamroq to'planib qolishiga oid yechimlar ham bo'lgan. Ammo, kanalni qurish boshqa injenerga topshirilgan. Qazish ishlari 1901 yilda boshlanib, mablag'

yetishmasligi sababli loyihada rejalahtirilgan yerkarning yarmi sug'oriladigan bo'lgan[6. 173]. Belgilangan xarajatlar grunt qatlamining murakkab tuzilishga egaligi sababli ko'zda tutilgandan ko'ra ko'proq sarflanishi ma'lum bo'lgan.

Termiz gornizoni askarlari o'zlariga qadar suv kelishini besh yil kutishga majbur bo'lganlar. B.N. Kastalskiy ishni o'z qo'liga olgandan keyin bir yil o'tib Termizga suv kelgan. D.N. Logofet qiziqish bilan Kastalskiy ishini shaxsan o'rgangan. Arikning bosh qismi daryo ichiga uzoqroq kirib, minglab svaya qoziqlar bilan mustahkamlangan, kesib, tarashlangan og'ir katta toshlar bilan mustahkamlangan. Suv shovqin solib dambaga urilib, ariq o'zani bo'ylab oqqanligini muallif ehtiros bilan bayon qilgan[4. 161]. B.N. Kastalskiy loyihasi 1898 yilda

Termiz va uni atrofini sug'orishga oid injener Gelman loyihasidan katta farq qilib, 10 ming desyatina yaqin yerni sug'orishga mo'ljallangan. Injener Gelman loyihasi 130 ming rubl sarflanish evaziga 4750 desyatina yerni sug'orishni va'da qilgan. Ammo, Buxoro amiridan talab qilingan yerlar 9 ming desyatina yer Surxondaryoning Amudaryoga quyilish yeridan ajratilgandan so'ng, Gelman loyihasi chetga surilib, harbiy injener Kastalskiyga loyihasiga start berilgan. Kanalni qurish 1901 yil boshlangan va Rossiya imperiyasi xazinasiga 300 ming rublga tushgan[3. 90-91]. Akademik V.V. Bartold ma'lumotlarida 1903 yili general-gubernator Ivanovning Amudaryo flotiliyasiga qarashli paraxodda kelib, Termizda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishib ketgan[1. 423]. Ushbu holat

Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi bu hududga qiziqishlari yuqori ekanligini ko'rsatgan. Kastalskiy loyihasi va boshchiligidida qazilgan kanaldan Termiz atrofidagi har desyatina yerni sug'orish ishlari uchun 40-50 rubl xarajat qilingan. O'sha paytda bir desyatina yerning ijara puli yiliga o'rtacha 12-15 rubl bo'lib, sarflangan xarajatlar 3-4 yilda chiqarib olingandan keyin faqat daromad keltirishi mo'ljallangan[6. 175]. Sug'oriladigan yerlarga asosan paxta ekish mo'ljallangan.

XX asrning boshlarida Buxoro amirligi hududi jumladan, Surxondaryo hududida Rossiya imperiyasi tomonidan irrigatsiya ishlari bilan bog'liq tajribasi faqatgina B.N. Kastalskiy loyihasi bo'lgan xolos. 1908 yilga qadar bir qator loyihalar bo'lsada, amaliy ishlar boshlanmagan. Injenerlar Yerlomov va Lesarlarning

loyihalari eng arzoni bo'lib, ular taklif etgan loyihalarda bir kvadrat vyorstni sug'orishga 35 rubl mablag' sarflanishi keltirilgan[3. 89-90]. Sarflangan xarajat esa ikki uch yilda yerlarni mahalliy aholiga ijara ga beri orqali qaytarib olii mo'ljallangan. Shuningdek, ko'pgina loyihalar ishonchsziz bo'lib, 1908 yil, "Tashkentskiy kurer" gazetasi 11-sonida bositgan maqolalarning birida, o'lkada gidrometrik, hidrografik, hidrologik tekshirishlardan keyingina ariq-kanallar qazish kerakligi ta'kidlangan[7. 95]. Chunki, ko'pchilik loyihalar katta xarajatlar talab qilsada, ariq-kanallar holatini yaxshi saqlash katta qiyinchiliklarga sabab bo'lgan deb xulosa qilish mumkin. Termiz va uning atrofini o'zlashtirilishi jarayonlarini tahlil qilgan Rossiya imperiyasi mutaxassislari qadimda ushbu

hudud ko'pdan-ko'p ariq-kanallar bilan sug'orilgan, obod bo'lganligini, o'zaro urushlar Termiz atrofini xarobalikka yuz tutishiga sabab bo'lganligi, o'zlari yashab turgan davr XX asr boshlarida ham ushbu ariq-kanallarning o'zanlari saqlanib qolninganligini keltirib o'tganlar. Misol tariqasida, D.N. Logofet qadimgi Termiz atroflari Surxonning Qizilsuv irmog'idan bosh olgan magistral kanaldan sug'orilganligit, kanal Termizdan 60 vyorst yuqoridan boshlanganligini, uning qurib qolgan o'zani bilinib turishi bilan bog'liq ma'lumotlarni yozib qoldirganligini keltirish mumkin[4. 157]. Shuningdek, Surxondaryodan bosh olgan va Sarijo'y degan joydan boshlangan qadimiylari ariq izlari haqidagi fikrlari ham mavjud[6. 175]. Bu kabi ariq o'zanlari butun Surxondaryo

vohasi bo'ylab ko'zga  
tashlanganki, ularning o'zi alohida  
tadqiqod bo'lib hisoblanadi.

Termiz va uning  
atroflaridagi yerbargi sug'orish  
ishlari Rossiya imperiyasi  
ma'murlari tomonidan o'z  
davining zamonaviy bilim va ilg'or  
texnik loyihalari bilan tashkil  
qilingan bo'lsada, sug'orish  
ishlarini boshlanishi tezda salbiy  
natijalarni ham ko'rsatgan.  
Chunki, kanal atroflarida suvning  
sizib chiqishi, botqoqzorliklarni  
paydo bo'lishiga, bezkak kasalligi  
ko'payishiga olib kelgan. Natijada,  
Termiz shahrining sanitariya holati  
yomonlashib, rus manzilgohi  
aholisining noroziligiga sabab  
bo'lgan. Termiz atrofidagi yerbargi  
ijaraga berish 1907 yilda  
to'xtatilgan bo'lsa, 1909 yilda  
Termish shahri yaqinida ekin ekish  
butunlay to'xtatilgan. Yiliga 15  
ming rubl ijaradan keladigan  
daromaddan vos kechilgan[3. 311].

Ammo, Termiz shahridan bir  
qadar uzoqroq yerbargi  
o'zlashtirish keyinchalik ham  
davom etgan.

Rossiya imperiyasining  
Turkiston o'liasi turli  
burchaklarida paxtachilik ishlariga  
katta xarajatlar sarflashining asosiy  
sababi paxta masalasida  
Amerikaga qaramlik bo'lib, ushbu  
holat "Tashkentskiy kurer"  
gazetasining 1908 yil, 102-sonidaga  
ma'lumotlarda quyidagicha  
keltirilgan. Unga ko'ra, Rossiya  
imperiyasi yiliga 73 mln rublga  
chetdan paxta sotib olganish  
barobarida, boj to'lovlariga 34,7  
mln rubl sarflagan[10. 57]. Shu  
sababli yangi yerbargi o'zlashtirish  
orfali paxta plantatsiyalari  
kengaytirishga harakat qilingan.  
XX asr boshlarida esa, Buxoro  
amirligi hududlariga ketma-ket  
mutaxassislar yuborilib,  
irrigatsiya, gidrografik, hidrologik,  
geologik izlanishlar olib borilgan.

Jumladan, "Vestnik finansov" jurnalining 1907 yilgi 26-sonida, Buxoro amirligining janubida Amudaryoga quyiladigan daryolardan ariq-kanallar qazib 250 ming desyatina yerni sug'orish imkonи mavjudligi keltirilgan[9. 15]. Shuningdek, 1908 yilda Moskva birja komiteti injener Yermolovni Amudaryo havzasiga cho'l hududlarini sug'orish imkoniyatini o'rganishga yuborgan. Injener xulosasiga ko'ra, 230 ming desyatina yerni sug'orish imkonи mavjud bo'lgan. Keyinchalik, 1912-1913 yillarda ushbu yerlar xususida amir bilan konsessiya masalasida kelishuvlar amalga oshirilgan[2. 17-18]. D.N. Logofet Rossiya markaziy hududlari jumladan, Moskvadagi paxtani qayta ishlash korchalonlariga bergan maslahatiga ko'ra, ular Poslavskiy, Kostalskiy, Yermolov,

Ananevlarning Termiz yerlarini yaxshi bilishlari, Termiz va uning atrofidagi yerlarda irrigatsiya ishlarini loyihalashda ularni bilim tajribasidan foydalanish lozimligini ta'kidlab o'tgan[6. 175]. Termiz va unga tutash yerlarni sug'orish ishlariga oid izlanishlar keyingi yillarda ham olib borilgan. Shuningdek, Termiz atrofida bo'sh yotgan yerlarndan Buxoro amiri Rossiya imperiyasi ma'murlariga hadya qilgan 10 ming desyatina yerlarni sug'orish maqsadida qazilgan kanal holatini yaxshi saqlab qolish uchun Rossiya ma'murlari har yili 3600 rubldan mablag' ajratib turganlar[3. 312]. Garchi Termiz va uning atroflari obod manzilga aylangan bo'lsada, bu hududlar Rossiya imperiyasi manfaatlari uchun xizmat qilgan.

**Xulosa** o'rnida aytish mumkinki, Rossiya imperiyasi XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida

paxta xom-ashyosiga xorijiy davlatlar qaramligidan xalos bo'lishga harakat qilib, Turkiston mintaqasi hududlarida va Buxoro amirligi hududlarida ekin ekishga yaroqli bo'lgan maydonlarni aniqlash va ularda paxta yetishtirish maqsadida ariq-kanallar qazishga alohida e'tibor qaratgan. Buxoro amirligidagi bo'sh yerlarni o'zlashtirish,

amirdan ushbu yerlarni uzoq muddatga konsessiya (lot.concessio "ruxsat berish", "yon berish" ma'nosini bildiradi)ga olish harakat qilina boshlangan. Ushbu jarayonning dastlabki bosqichi sifatida Termiz atroflaridagi yerlarni o'zlashtirish bo'lgan deb hisoblash mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Бартольд В.В. Сочинения. Общие работы по истории Средней Азии. Том. II. Часть 1. – М.: Издательство восточной литературы, 1963. – 1020 с.
2. Искандаров Б.И. Бухара (1918-1920 гг.) – Душанбе: Дониш, 1970. - 168 с.
3. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом: Т. 1-2 / Д. Н. Логофет. - СПб. Т. 2. - 1911. - 357 с.
4. Логофет Д.Н. В горах и на равнинах Бухары: ( очерки Средней Азии) / Д.Н. Логофет. - С.-Петербург: издание В.Березовского, 1913. - VII, 619 с.: ил.
5. Логофет Д.Н. Новые земли // Туркестанский сборник Т. 497. – С. 109-112.

6. Логофет Д.Н. Орошение Термеза // Туркестанский сборник.  
Том 497. – С. 172-175.

7. Лундинг А.М. К вопросу постановки ирригационного дела  
в Туркестанском крае. // Туркестанский сборник. Том 478. – С. 94-98.

8. Мазов С. Восточная Бухара, Бадахшан и Северный  
Афганистан // Туркестанский сборник Том 404. – С. 1-84.

9. Масальский В.Л. Хлопководство, орошение  
государственных земель и частная предпримчивость //  
Туркестанский сборник. Том. 445. – С. 1-42.

10. Нестрое М. Орошение земель Средней Азии //  
Туркестанский сборник Том 465. – С. 57-58.

# TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

## ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ

### ILMIY – METODIK JURNAL

BOSH MUHARIR

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
DAMINOV MIRZOHID ISLOMOVICH



Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original – makeddan bosishga

ruxsat etildi: 29.10.2023. Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>8</sub>. Kegli 14 shponli. « Palatino

Linotype » garn. Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog'ozি.

Bosma tabog'i 12.5 Adadi . Buyurtma №



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Buxoro shahar O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.

Tel: 0(365) 222-46-46

**Отформатировано:** узбекский (латиница)

**Отформатировано:** Шрифт: Palatino Linotype, 14 пт

**Отформатировано:** узбекский (кириллица)

**Отформатировано:** По центру, Отступ: Первая строка см, междустрочный, множитель 1.15 ин

**Отформатировано:** Цвет шрифта: Светло-синий

**Отформатировано:** Шрифт: 12 пт

**Отформатировано:** Шрифт: 12 пт

**Отформатировано:** Шрифт: 12 пт, Цвет шрифта: Светло-синий

**Отформатировано:** Цвет шрифта: Светло-синий, узбекский (кириллица)